

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIV VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI  
TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

“TASDIQLAYMAN”



“KELISHILDI”



Ro'yhatga olindi: BD-5110800-2.05

2018- yil "08" 08

**RANGTASVIR**

**FAN DASTURI**

Bilim sohasi: 100000 – Gumanitar  
Ta'lim sohasi: 110000 - Pedagogika  
Ta'lim yo'nalishi: 5110800 – Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi

Toshkent – 2018

Fan dasturi Oliy va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi yo'nalishlari bo'yicha O'quv-uslubiy birlashmalar faoliyatini Muvofiglashuvchi Kengashning 2018-yil "16" 08 dagi 8-sonli bayonnomasi bilan ma'qullangan.

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2018-yil "25" 08 dagi 8-sonli buyrug'i bilan ma'qullangan fan dasturlarini tayanch oliy ta'lim muassasasi tomonidan tasdiqlashga rozilik berilgan.

Fan dasturi Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universitetida ishlab chiqildi.

**Tuzuvchi:**

**Xalilov R.Sh** - «Tasviriy san'at va uni o'qitish metodikasi» kafedrasi dotsenti

**Taqrizchilar:**

**Boburatov Z.R.** – TAQL, "Qalamtasvir rangtasvir va haykaltaroshlik" kafedrasi dotsenti.  
**Xakimov U.B.** – Respublika rassomlik kolleji direktori.

## I. O'quv fanining dolzarbligi va oliy kasbiy ta'limdagi o'rni

Ushbu dastur pedagogika oliy o'quv yurtlari, tasviriy san'at va muhandislik grafikasi bakalavriat ta'lim yo'nalishlari talabalari uchun mo'ljallangan bo'lib, unda tasviriy san'atning asoslaridan bo'lgan rangtasvirning kelib chiqish tarixi va rivojlanishi, tasviriy san'at qonun-qoidalarini, bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarini pedagogik jarayonga puxta tayyorlashda qalamtasvirning ahamiyati xaqida so'z boradi.

## II. O'quv fanining maqsadi va vazifasi

Fanning o'qitishdan maqsad –tasviriy san'at turlarining; dekorativ amaliy san'at, kompozitsiya asosi sifatida bo'lajak pedagog rassomlarga borliqni ko'ra bilish to'g'ri tasvirlash, va sezgi organlarini shakllantirish hamda bo'lajak rassom-pedagoglarni tasviriy san'at asoslarini o'rgatishni maqsad qilib qo'yadi.

"Rangtasvir" fanining vazifalari boshqa kasbiy fanlari qatorida bo'lajak o'qituvchi-rassomlarni tayyorlashda asosiy mezon hisoblanib, u talabalarga amaliy mashg'ulotlar orqali olib boriladi. Shuni ta'kidlash kerakki, amaliy mashg'ulotlar qatorida nazariy bilimlar ham bo'lajak rassom-pedagoglarga ularning keyingi pedagogik va ijodiy faoliyatlarida muhim o'rin tutadi.

### Bakalavr:

- rangtasvirning tasviriy san'atda tutgan o'rni;  
-rangtasvirning mashg'ulotlarini o'tishda tasviriy san'at asoslari, kompozitsiya qonuniyatlari, havo perspektivalari, ufq tekisligi, konstruktsiya, nisbatlar, materiallar xususiyatlari, yorug'-soya qonuniyatlari, turli tasvirlash vositalaridan foydalanishni *bilimga*;

- talaba rangtasvirning darslarini rejalashtirish: natyurmort, portret, odamning turli holatlaridan postanovkalar tashkil etish, tasvirlash texnologiyalari, o'quvchilarga rangtasvir mashg'ulotlarini tashkil etishda san'at asarlarini tahlil eta olish, yaxshi o'zlashtiruvchi va boshlovchi o'quvchilar bilan individual darslar olib borish, o'quvchilar ijodiy ishlarini baholay olish *ko'nikma*;

- talaba tasviriy san'at tarixi va nazariyasi, kompozitsiya qonuniyatlari va plastik anatomiya, portret xarakteristikasi va psixologik echim, o'quv va akademik rangtasvir ishlash metodlari va metodologik asoslari, rangtasvir texnologiyasi, oddiy geometrik shakllardan boshlab, insonning to'liq qomatini tasvirlay olish, rangtasvir kompozitsiyasi, tasviriy san'at asarlarini yaratishda rangtasvirning ahamiyati, turli tasvirlash vositalarida kompozitsiyalar tuzish *malakalariga ega bo'lishi kerak*.

Fan dasturi Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti O'quv-uslubiy Kengashida ko'rib chiqilgan va tavsifiya qilingan (2018 yil "06" dagi 8-sonli bayonnomasi).



### III. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari)

#### 1-modul. Natyurmort

1-mabiy Xolis fonda 2-3 geometrik jismlardan tuzilgan sodda natyurmort ishlash (Grizaylda).

Rangtasvir haqida tushuncha. Realistik rangtasvirning maqsad va vazifalari. Shaklni konstruktiv tahlil qilish, rangtasvirning muhim xususiyati va obrazli ifodalash vositasi sifatida koloritning ahamiyatini o'rganish. Grizayl texnikasi. Aromatik vaxromatik ranglarni o'rganish. Mato yoki kartonga moybo'yoqda ishlanaadi. Natyurmortda buyumlar shakli, hajmi, yorug'lik xususiyatlarini bir xil rangda to'g'ri aks ettirish.

2-mavzu: Gipsli geometrik jismlardan tuzilgan natyurmortning rangtasvirini cheklangan ranglarda bajarish (Akvarel).

Akvarel bo'yog'i haqida tushuncha. Shaklni konstruktiv tahlil qilish, rangtasvirning muhim xususiyati va obrazli ifodalash vositasi sifatida koloritning ahamiyatini o'rganish.

3-mavzu: Xolis fonda oddiy shakldagi uy-ro'zg'or buyumlardan tashkil topgan natyurmortning rangtasvirini bajarish.

Kompozitsiyani qog'oz yuzasida joylashtirishni o'rganish. Soya yorug' jihatlari, rang berish usullarini o'rganish. Kompozitsiyadagi hajmdorlikni, fazoviylikni ifodalash. Asosiy va qo'shimcha ranglar haqida tushunchaga ega bo'lish. Sovuq tusdagi bo'yovlar xususiyatini hisobga olib kompozitsiyani aks ettirish. Qo'yilmaga tushayotgan yorug'lik kuchini aniqlash, ranglarni to'g'ri ifoda eta olish.

4-mavzu: Qisqa muddatda uy-ro'zg'or buyumlardan tashkil topgan natyurmortning rangtasvirini bajarish.

Shaklni konstruktiv tahlil qilish, rangtasvirning muhim xususiyati va obrazli ifodalash vositasi sifatida koloritning ahamiyatini o'rganish. Soya yorug' jihatlari, rang berish usullarini o'rganish. Kompozitsiyadagi hajmdorlikni, fazoviylikni ifodalash

5-mavzu: Kontrast fonda turli shaklli va har xil fakturalii buyumlardan tuzilgan natyurmortning rangtasvirini bajarish.

Rangda jismlarning soya va yorug' joylarini belgilab, tus jihatlari topish Soya yorug' jihatlari, rang berish usullarini o'rganish. Kompozitsiyadagi hajmdorlikni, fazoviylikni ifodalash

6-mavzu: Kontrast rangli jismlardan tashkil topgan mavzuli natyurmort ishlash.

Rangda kompozitsiyaning soya va yorug' joylarini belgilab, tus jihatlari topish. Shaklni konstruktiv tahlil qilish, rangtasvirning muhim xususiyati va obrazli ifodalash vositasi sifatida koloritning ahamiyatini o'rganish. Soya yorug'

jihatlarini, rang berish usullarini o'rganish. Kompozitsiyadagi hajmdorlikni, fazoviylikni ifodalash

7-mavzu: Ko'k tusli ranglardan tashkil topgan natyurmort rangtasvirini bajarish. (Akvarel)

Iliq va sovuq tuslar haqida tushunchaga ega bo'lish. Iliq ranglar majmuiga bo'ysundirgan holda natyurmort ifodaviyligiga erishish. Muhit, yorug'lik manbaini to'g'ri aks ettirish. Ishni yaxlit bir tusga bo'ysundirgan holda

8-mavzu: Guashda ishlash texnikasi. Sovuq ranglardan tashkil topgan natyurmortning rangtasviri (Guash texnikasida).

Rang va tus munosabatlarini aniqlashni o'rganish. Yorug'likni hisobga olgan holda rang va tuslarini topish orqali ishni metodik izchillikda yakunlash.

9-mavzu: Dekorativ fonda har xil buyumlardan tashkil topgan natyurmortning rangtasviri.

Buyuk rassomlar asarlari namunalari bilan tanishish. Natyurmort qo'yilmasini qog'oz satxida to'g'ri joylashtirish, aniq tushib turgan yorug'lik muhitini hisobga olgan holda tasvirlash. Buyumlar sirtida atrofda ranglarning aks etishi, hajm, yaxlitlik masalalarini hal etish.

10-mavzu: Hayvonlar va parrandalarning ranglavhalarini bajarish.

Hayvonlar va parrandalarning ranglavhalarini to'g'ri chizish va rang bilan hajmlilikni ta'minlagan holda aks ettirish. Hayvon va qushlarning anatomiyasi. Hayvonlarning o'q skeleti, oldingi va orqa oyoqlari suyaklarining tuzilishi, birikishi, ularning inson skelet suyaklaridan farq qila bilish.

#### IV. Amaliy mashg'ulotlar bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar

Amaliy mashg'ulotlar maxsus dastgohli uskunalar bilan jihozlangan o'quv ustaxonalarida har bir akadem guruh kichik guruhlarga bo'lingan holda o'tiladi. Mashg'ulotlar davomida "masterklass"lar o'tkaziladi.

1. Usta rassom va pedagoglarning rangtasvirida yaratgan asarlarini tahlil qilish; 2. Tasviriy san'atning asosiy qonun va qoidalarini namoyish etuvchi plakatlarini o'rganish;

3. Tasviriy san'atga oid maxsus adabiyotlarni mutoola qilish;

4. Tabiat qo'ymida havo perspektivasini qo'llagan holda ranglavhalar ishlash;

5. Rassomlar ustaxonalari, ko'rgazma zallari va galereyalarga tashrif buyurish, hamda ulardan nushalar olish;

6. Shakllarni chiziqli konstruktiv qurilishini tasvirlashga oid mashqlar bajarish (Geometrik shakllar misolida).

7. Bosh suyagi yuz qismi bo'laklarining o'ziga hosligi va tuzilishiga oid ranglavhalar ishlash.

8. Konstruktiv anatomik tuzilish asoslarini hisobga olgan holda ayol qiyofachining yuz tuzilishining xarakterli xususiyatlarini e'tiborga olgan xolda boshning elka



bilan birlashuvini aniqlab tasvirlash (bo'yin va elka muskullari bog'lanishini ifoda etgan xolda).

9. Yalang'och gavdaga qarab turli nuqtalardan tez ranglavhalar bajarish, inson tana bo'laklarining konstruktiv - anatomik jihatdan tuzilishini o'rganish.

#### **V . Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar**

Talaba mustaqil ishni tayyorlashda muayyan fanning xususiyatlarini hisobga olgan xolda quyidagi shakllardan foydalanish tavsiya etiladi:

- Realistik rangtasviri haqida adabiyotlar bilan tanishish; Meva va sabzavotlarni grizayl usulida ishlash bo'yicha mashqlar bajarish.;
- Tasviriy san'atning asosiy qonun-qoidalari hamda ishlash usullaribi namoyish etuvchi reproduksiyalar va video tasmalarni ko'rib, ularni amalda qo'llashni o'rganish; maxsus adabiyotlar bo'yicha fanlar bo'limlari yoki mavzulari ustida ishlash;
- Tasviriy san'atga oid maxsus adabiyotlarni mutolaa qilish; Cheklangan bo'yoqlarda meva va uy-ro'zg'or buyumlaridan sodda natyurmortlar ishlash Faol va muammoli o'qitish uslubidan foydalanadigan o'quv mashg'ulotlari;
- Mustaqil uy-ro'zg'or buyumlarinidan tashkil topgan sodda natyurmortni tuzish va akvarelda turli texnologiyalarda tasvirlashni o'rganishga oid mashqlar bajarish; a'lim.
- Rangi, tusi kontrast bo'lgan buyumlardan tuzilgan sodda natyurmortlar ranglavhalarini ishlash.
- Kontrast rangli jismlardan tashkil topgan mavzuli natyurmort ranglavhalari bajarish.
- Akvarelda natyurmort ranglavhalari bajarish.
- Guash texnikasida sovuq ranglardan tashkil topgan natyurmort ranglavhalarini bajarish
- Dekorativ fonda har xil buyumlardan tashkil topgan natyurmort ranglavhalarini bajarish.
- Mustaqil ravishda uy hayvonlari va parrandalarning ranglavhalarini bajarish

#### **VI. Asosiy va qo'shimcha o'quv adabiyotlar hamda axborot manbaalari** **Asosiy adabiyot:**

1. Халилов Р. Акварель. Издательство «Навруз» Т. 2013

#### **Qo'shimcha adabiyotlar:**

2. Sh.M.Mirziyoyev Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib intizom va shxsiy javobgarlik-har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016 yil yakunlari va 2017 yil istiqbollariga bag'shlangan majlisidagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining nutqi. // Halq so'zi gazetasi. 2017 yil 16 yanvar, № 11.

3. Мирзиёев Ш.М. Буюк келажагимизни мард ва олижаноб халкимиз билан бирга курамыз. Тошкент, “Ўзбекистон”, 2017 йил, 488 бет.

4. Мирзиёев Ш.М. Эркин ва фаровон, демократик Ўзбекистон давлатини биргаликда барпо этамиз. Тошкент, “Ўзбекистон”, 2016 йил, 56 бет.
5. Мирзиёев Ш.М. Қонун устуворлиги ва инсон манфаатларини таъминлаш-юрт тараққиёти ва халқ фаровонлигининг гарови. Тошкент, “Ўзбекистон”, 2017 йил, 48 бет.
6. Мирзиёев Ш.М. Танқидий таҳлил, қатъий тартиб интизом ва шахсий жавобгарлик - ҳар бир раҳбар фаолиятининг кундалик қондаси бўлиши керак. Тошкент, “Ўзбекистон”, 2017 йил, 104 бет.
7. В.Boymetov “Qalamtasvir” Pedagogika institutlari va universitetlari talabalari uchun o‘quv qo‘llanma. Toshkent, 1997.
8. Tojiyev B, Mahkamova S. “Qalamtasvir” (dastlabki saboqlar). Metodik qo‘llanma. Toshkent, 2013.
9. P.Thomas, A.Taylor Drawing, London-2011
10. B.Barber “Full course of the drawing”, Barselona-2014.

#### **Internet saytlarii**

11. [www.tdpu.uz](http://www.tdpu.uz)
12. [www.pedagog.uz](http://www.pedagog.uz)
13. [www.Ziyonet.uz](http://www.Ziyonet.uz)
14. [www.edu.uz](http://www.edu.uz)
15. [tdpu-INTERNET. Ped](#)